

CHEGARA ZONASI VA CHEGARA MINTAQASIDA
O'RMON XO'JALIGINI YURITISH VA O'RMONDAN
FOYDALANISH TARTIBIGA OID
USLUBIY QO'LLANMA

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025

Chegara zonasi va chegara mintaqasida o'rmon xo'jaligini yuritish va o'rmondan foydalanish tartibiga oid uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur uslubiy qo'llanma chegara zonasi va chegara mintaqasida o'rmon xo'jaligini yuritish hamda o'rmonlardan foydalanish tartibiga oid asosiy qoidalarni yoritishga qaratilgan. Qo'llanma ushbu hududlarda o'rmon resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, qayta tiklash va barqaror boshqarishning tashkiliy-huquqiy asoslarini izchil bayon etadi.

Chegara hududlarida o'rmon xo'jaligini samarali tashkil etish ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu jarayon milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik va aholining turmush darajasini oshirish bilan ham bevosita bog'liqdir.

Qo'llanma o'rmon xo'jaligi mutaxassislari, tegishli davlat organlari xodimlari hamda sohaga aloqador boshqa manfaatdor tomonlar uchun amaliy-uslubiy ko'rsatma vazifasini bajaradi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta'minlash, cho'llanish jarayonlarini kamaytirish, yashil hududlarni kengaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, chegara zonasi va chegara mintaqalarida o'rmon xo'jaligini yuritish va o'rmondan foydalanish tartibini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bu hududlarda ekologik muammolarning yechimi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki milliy xavfsizlik, hududiy yaxlitlik va aholining turmush darajasini yuksaltirish bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Chegara hududlari o'zining murakkab tabiiy-iqlim sharoitlari, bioxilma-xilligi, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bilan ajralib turadi. Shu sababli mazkur mintaqalarda o'rmon xo'jaligini oqilona tashkil etish, o'rmon resurslaridan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish va qayta tiklash ishlarini aniq tartibga solish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, tabiiy ekotizimlarni saqlash, cho'l va yarim cho'l hududlarda eroziya jarayonlarini kamaytirish, daryo bo'ylarida va suv havzalari atrofida barqaror ekologik muhitni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma chegara zonasi va chegara mintaqasida o'rmon xo'jaligini yuritishning huquqiy asoslari, tashkiliy mexanizmlari hamda amaliy yo'nalishlarini yoritishga qaratilgan. Unda o'rmon resurslaridan oqilona foydalanish, davlat-xususiy sheriklik asosida boshqaruvni yo'lga qo'yish, ko'ngillilar ishtirokini kengaytirish va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish masalalari o'z ifodasini topadi.

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

O'zbekiston Respublikasining "O'rmon xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi 197-son "O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida " gi qarori	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-maydagi 90-sonli "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-iyuldagi 530-son " O'rmon xo'jaligini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-sentabrdagi 717-son "Davlat o'rmon xo'jaligi organlarining faoliyatini takomillashtirish va o'rmon xo'jaliklarining chegara hududlari tabiiy resurslaridan foydalanish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori	

UMUMIY TUSHUNCHALAR

USHBU QO'LLANMADA QUYIDAGI ASOSIY TUSHUNCHALAR QO'LLANILADI:

- **chegara zonasi** — chegara mintaqasiga tutash bo'lgan, chegara rejimi joriy etiladigan chegaraoldi hududi yoki uning bir qismi; chegara mintaqasi — Davlat chegarasiga bevosita tutash bo'lgan, Davlat chegarasi rejimi joriy etiladigan chegaraoldi hududining bir qismi;
- **o'rmondan foydalanuvchilar** — o'rmondan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;
- **davlat o'rmon fondi uchastkalari** — Davlat o'rmon fondining davlat o'rmon kadastrida ko'rsatilgan muayyan chegaraga, maydonga, joylashgan yeriga, huquqiy rejimga va boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan bir qismi;
- **davlat o'rmon xo'jaligi organlari** — O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi, uning hududiy organlari va quyi tashkilotlari;

- **oʻrmon xoʻjaligining quyi tashkilotlari** — Oʻzbekiston Respublikasi Oʻrmon xoʻjaligi davlat qoʻmitasi tizimiga kiruvchi, yuridik shaxs maqomiga ega boʻlgan tashkilotlar, shu jumladan milliy tabiat bogʻlari, davlat oʻrmon xoʻjaliklari, davlat oʻrmon-ov xoʻjaliklari, dorivor oʻsimliklar yetishtirish boʻyicha davlat oʻrmon xoʻjaliklari, ilmiy-tajriba stansiyalari va boshqa tashkilotlar.

CHEGARA ZONASI VA CHEGARA MINTAQASIDA OʻRMON XOʻJALIGINI YURITISH TARTIBI

Diqqat!

Chegara zonasi va chegara mintaqasida oʻrmon xoʻjaligini yuritish davlat oʻrmon xoʻjaligi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Chegara zonasida joylashgan davlat oʻrmon xoʻjaligi organlarining xodimlari chegara zonasida ruxsatnoma kartochkalarisiz shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar, chegara mintaqasida — Oʻzbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik

xizmatining chegara qo'shinlari (keyingi o'rinlarda — chegara qo'shinlari deb ataladi) tomonidan qonunchilikda **belgilangan tartibda beriladigan ruxsatnomalar** bo'yicha bo'lish huquqiga egadir.



Bilib oling!

Chegara zonasi va chegara mintaqasida joylashgan o'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining va chegara qo'shinlarining tegishli bo'linmalariga har yili 1 marta o'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlarining xodimlari bo'lgan shaxslar ro'yxatini taqdim etadi.

Ichki ishlar va chegara qo'shinlari bo'linmalari ushbu ro'yxatni tasdiqlaydi va o'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlariga ma'lumot uchun yuboradi.



Diqqat!

O'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlari xodimlarining chegara mintaqasida shu maqsad uchun belgilanmagan yo'llar va so'qmoqlarda harakatlanishi taqiqlanadi (o'rmon qo'riqchiligi xodimlari bundan mustasno).

Chegara mintaqasida ishlab chiqarish ishlari amalga oshiriladigan hududlarida (joylarida) harakatlanish uchun o'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlari chegara qo'shinlari bo'linmalari bilan kelishgan holda ularga olib boradigan zarur yo'llar va so'qmoqlarni jihozlashi va ta'mirlashi mumkin.

CHEGARA QO'SHINLARI BO'LINMALARI O'Z VAKOLATLARIGA MUVOFIQ, ZARURAT TUG'ILGANDA

- chegara mintaqasida ham
- chegara zonasida ham bu yoki bu tadbirlarni o'tkazishni ma'lum bir vaqtga qadar to'xtatib turadi.



Bilib oling!

O'rmonlarni qayta tiklash tadbirlari qonunchilikka muvofiq o'tkaziladi.

- Chegara mintaqasida o'rmonlarni qayta tiklash tadbirlari tizimi asosan o'rmon daraxtlarining tabiiy qayta tiklanish salohiyatidan foydalanishga yo'naltirilishi kerak.
- Chegara zonasida va chegara mintaqasida barcha o'rmonlarni qayta tiklash bo'yicha barcha tadbirlar sanitariya qoidalari va normalari, yong'in xavfsizligi qoidalari va boshqa qonunchilik talablariga muvofiq bajarilishi lozim.

Chegara zonasida va chegara mintaqasida o'rmon zararkunandalari va kasalliklari o'choqlari, o'rmon yong'inlarining xavfli tarqalishi aniqlangan hollarda, davlat o'rmon xo'jaligi organlari bu haqida qo'shni davlatning vakolatli organlarini tezkor xabardor qilishlari kerak.

YONGIN XAVFSIZLIGI:

- Chegara zonasida yong'inlar yuzaga kelgan va ularni bartaraf etish vaqtida (yong'in xavfi davrida) fuqarolarning o'rmonlarga kirishi cheklanadi!
- Transport vositalarining umumiy foydalanishdagi yo'llardan tashqari harakatlanishi taqiqlanadi, davlat o'rmon xo'jaligi organlarining patrul avtomobillari, chegara qo'shinlari xodimlari va transport vositalari bundan mustasno, o'rmonlardan rekreatsiya maqsadlarida foydalanish cheklanadi.

Chegara qo'shinlari qonunchilikda belgilangan tartibda chegara mintaqasida xo'jalik faoliyati va boshqa faoliyat turlarini yuritishda qo'shimcha qoidalar belgilashi mumkin.

O'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlari chegara zonasi va chegara mintaqasida davlat o'rmon fondining o'zlariga berilgan uchastkalaridan faqat kunning yorug' vaqtida o'rmon xo'jaligini yuritadi va boshqa qishloq xo'jaligi ishlarini amalga oshiradi, tunda chegara mintaqalarida qolishiga yo'l qo'yilmaydi.

CHEGARA ZONASIDA VA CHEGARA MINTAQASIDA O'RMONDAN FOYDALANISH TARTIBI

CHEGARA ZONASIDA VA CHEGARA MINTAQASIDA O'RMONDAN FOYDALANISH:

- Doimiy;
- vaqtincha bo'lishi mumkin.

O'rmon fondi yerlari doimiy egalik qilishga berilgan o'rmon xo'jaligining quyi tashkilotlari o'rmondan doimiy foydalanuvchilar hisoblanadi.

O'rmondan foydalanish huquqini beruvchi tegishli hujjatlar asosida davlat o'rmon fondi uchastkalaridan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar o'rmondan vaqtincha foydalanuvchilar hisoblanadi.

CHEGARA ZONASIDA VA CHEGARA MINTAQASIDA O'RMONDAN FOYDALANISH:

- umumiy;
- maxsus bo'lishi mumkin.

O'rmondan umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan **bepul va o'z ehtiyojlari uchun** belgilangan hajmlarda, qonunchilikda nazarda tutilgan foydalanish turlari bo'yicha amalga oshiriladi.



Bilib oling!

- O'rmondan maxsus foydalanish to'lov asosida amalga oshiriladi.
- O'rmondan maxsus foydalanish huquqi yuridik va jismoniy shaxslarga davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan beriladi.

O'rmondan maxsus foydalanuvchilar chegara zonasi va chegara mintaqasida joylashgan o'rmondan ichki ishlar organlari va chegara qo'shinlarining tegishli ruxsatnomalarini qonunchilikda belgilangan tartibda olgandan so'ng foydalanish huquqi ega bo'ladi.

O'RMONDAN DOIMIIY FOYDALANUVCHILAR QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:

- davlat o'rmon fondi yerlaridan, suv resurslaridan, keng tarqalgan foydali qazilmalardan belgilangan tartibda o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish;

- davlat o'rmon fondining o'zlariga berilgan uchastkalarida o'rmon xo'jaligini yuritish, o'rmondan foydalanish;
- chegara mintaqasidan tashqari, belgilangan tartibda yo'l ochish, o'rmon mahsulotini joylashtirish uchun maydonchalarni jihozlash, ishlab chiqarish va turarjoy binolari hamda inshootlarni qurish;
- tayyorlangan mahsulot va uni realizatsiya qilishdan olingan daromad mulkdori bo'lish.

O'RMONDAN DOIMIIY FOYDALANUVCHILAR:

- o'rmonlarning muhofaza qilinishini, himoya qilinishini, ko'paytirilishini, takroriy ko'paytirilishini, qayta tiklanishini, mahsuldorligi oshirilishini va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashi;
- o'rmonlarning davlat hisobini yuritishi;
- ishlarni o'rmonlarning holatiga hamda ularni takroriy ko'paytirishga, shuningdek, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, suv obyektlari va boshqa tabiiy obyektlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydigan usullar bilan yuritishi;
- o'rmondan vaqtincha foydalanuvchilarning faoliyatini nazorat qilish;
- muhofaza etiladigan tabiiy hududlar rejimini ta'minlashi;
- o'rmondan foydalanuvchi boshqa shaxslarning huquqlarini buzmasligi shart.

O'RMONDAN VAQTINCHA FOYDALANUVCHILAR QUYIDAGI HUQUQLARGA EGA:

- davlat o'rmon fondining o'rmondan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlarda ko'rsatilgan uchastkalari doirasida, belgilangan muddatlarda va o'rmondan foydalanish turlari foydalanish;
- chegara mintaqasidan tashqari, belgilangan tartibda yo'l ochish, o'rmon mahsulotini joylashtirish uchun maydonchalarni jihozlash, ishlab chiqarish binolari va inshootlari qurish.

O'RMONDAN VAQTINCHA FOYDALANUVCHILAR:

- o'zlariga berilgan yaylovlar, pichanzorlar va boshqa o'rmonzorlardan oqilona foydalanishi;
- ishlarni o'rmonlarning holatiga hamda ularni takroriy ko'paytirishga, shuningdek tuproqning, o'simlik va hayvonot dunyosining, suv obyektlarining va boshqa tabiiy obyektlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydigan usullar bilan yuritishi;
- o'rmonlarni muhofaza qilish, himoya qilish, ko'paytirish, takroriy ko'paytirish, qayta tiklash, ularning mahsuldorligini oshirish va ulardan oqilona foydalanish sohasida belgilangan qoidalar, normalar va normativlarga rioya etishi;
- o'rmondan foydalanganlik uchun o'z vaqtida va belgilangan tartibda haq to'lashi;
- o'rmondan foydalanuvchi boshqa shaxslarning huquqlarini buzmasligi shart.

CHEGARA ZONASIDA VA CHEGARA MINTAQASIDA O'RMONDAN FOYDALANISH TURLARI QUYIDAGILARDAN IBORAT:

- daraxtzorlar va butazorlarni kesish;
- pichan o'rish;
- chorva mollarini o'tlatish;
- asalari uyalari va qutilarini joylashtirish;
- yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va texnik xomashyosini yig'ish hamda tayyorlash;
- yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig'ish va tayyorlash;
- daraxt va butalarni kesmagan holda o'tin va shox-shabballarni yig'ish;
- o'rmon-ovchilik, ovchilik va (yoki) baliqchilik xo'jaliklari ehtiyojlari uchun foydalanish; ilmiy-tadqiqot, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekreatsiya va estetik maqsadlarda foydalanish;
- ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida foydalanish.



Diqqat!

Daraxt va butazorlarni kesish davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan chegara qo'shinlari bo'linmalari bilan kelishgan holda amalga oshirilishi lozim.

Daraxt va butazorlarni kesish oʻrmon kesish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Chegara mintaqasida oʻrmon xoʻjaligining quyi tashkilotlari oʻrmon kesishda niholni maksimal darajada saqlab qolish va kesishlarning tabiiy ravishda tiklanishi uchun sharoitlar yaratishni taʼminlashi kerak.



Bilib oling!

- Oraliq foydalanish va sanitariya maqsadida oʻrmonni parvarish qilish uchun kesish (siyraklashtirish, tozalash, yaganalash, oʻtish joyini ochish) tanlab kesish orqali amalga oshiriladi.
- Chegara mintaqasida siyraklashtirish va tozalash qattiq bargli va igna bargli daraxtzorlarda ikkinchi darajali navlar tomonidan boʻgʻib qoʻyilishi yoki qisilishi xavfi mavjud boʻlsa amalga oshiriladi.

Sanitariya maqsadida tanlab kesish va tozalash ishlari faqat qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Agentlikning quyi tashkilotlari chegara mintaqasida daraxtlarning sanitar holatini tegishli darajada taʼminlashi va zarur hollarda har yili saniratiya maqsadida tanlab kesish va tozalashni amalga oshirishi shart.

Tabiat hodisalari taʼsirida yoki oʻrmon kesishda daraxtlar Oʻzbekiston Respublikasi Davlat chegarasiga yoki chegaradosh davlat hududiga qulay tushsa, ushbu daraxtlarni olib chiqishga va oʻz davlati hududiga olib oʻtishga tayyorlash imkoniyatini taqdim etish masalasini tomonlar xalqaro shartnomalarga muvofiq yetti

sutka davomida, tomonlarning chegara qo'shinlarini xabardor va jalb qilgan holda hal etadilar.

Pichan o'rish, chorva mollarini o'tlatish, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va texnik xomashyosini yig'ish hamda tayyorlash, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig'ish va tayyorlash davlat o'rmon xo'jaligi organlarining, ichki ishlarning organlari va chegara qo'shinlari bo'linmalari bilan kelishilgan holda beriladigan ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

Yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor va texnik xomashyosini yig'ish hamda tayyorlash, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarni oziq-ovqat maqsadlari uchun yig'ish va tayyorlash mavjud o'simlik resurslarining tamom bo'lib qolishiga va o'rmon xo'jaligiga zarar yetkazilishiga yo'l qo'yilmaydigan vositalar va usullar bilan amalga oshiriladi.



Diqqat!

Davlat o'rmon fondining uchastkalari o'rmondan foydalanuvchilarga

- asalari uyalari va qutilarini joylashtirish;
- daraxt va butalarni kesmagan holda o'tin va shox-shabbalarni yig'ish uchun davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan ichki ishlar organlari va chegara qo'shinlari bo'linmalari bilan kelishilgan holda beriladi.

Chegara zonasidagi davlat o'rmon fondi yerlarida o'rmon-ovchilik, ovchilik va (yoki) baliqchilik xo'jaliklari ehtiyojlari uchun foydalanish davlat o'rmon xo'jaligi organlari tomonidan ichki ishlar organlari va chegara qo'shinlari bo'linmalari bilan kelishilgan holda beriladigan yo'llanma va hayvonlarni tutish varaqalari asosida amalga oshiriladi. Chegara mintaqasida esa bunday foydalanish taqiqlanadi.

- Chegara zonasida o'rmon fondi uchastkalaridan ilmiy-tadqiqot va o'quv-tajriba maqsadlarida foydalanish cheklovlarisiz,
- chegara mintaqasida esa — chegara qo'shinlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Agentlikning hududiy organlari mahalliy davlat hokimiyati organlari va chegara qo'shinlari bo'linmalari bilan kelishgan holda, davlat o'rmon fondi uchastkalarini yuridik va jismoniy shaxslarga madaniy-ma'rifiy,

- tarbiyaviy,
- sog'lomlashtirish,
- rekreatsdiya va estetik maqsadlarda,
- ekologik turizmni rivojlantirish maqsadida foydalanishga berishi mumkin.

O'rmon resurslaridan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlashda chegara qo'shinlariga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashadilar.



Bilib oling!

O'rmondan foydalanish huquqi quyidagi hollarda tugatiladi:

- foydalanish zarurati qolmaganda yoki undan voz kechilganda;
- foydalanishning belgilangan muddati o'tganda;
- o'rmon to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganda;
- o'rmondan maxsus foydalanish huquqi berilgan jismoniy shaxs vafot etganda yoki uning faoliyati tugatilganda yoxud yuridik shaxs tugatilganda.



Yakunlovchi qoida

Qonunchilik talablarini buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Chegara zonasi va chegara mintaqasida o'rmon xo'jaligini yuritish va o'rmondan foydalanish tartibiga oid Uslubiy qo'llanma

Nashr uchun mas'ullar:

Muharrir:

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.